

# INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK VA INNOVASION BOSHQARUVI HAMDA AXBOROT TA'MINOTI

**Amonxonova Yanglishxon Abduazizzon qizi -JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti “Umumiy psixologiya” kafedrasi stajyor-o'qituvchisi  
yangilishxonamonxonova@gmail.com**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonining auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarida maktab rahbarlarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi, noan'anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o'zini qanday tutish, muloqotga kirishish, ta'lif sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijalari borasida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya ko'nikma, malaka, kompetensiya, shakllangan, kasbiy tajriba, ta'lif tizimi, munosabatlar, vaziyat, yondashish, boshqaruv, axborot.

Jahon miqyosida ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish sohasidagi rivojlanish tendensiyalari ta'lif sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. AQSH, Angliya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlarda ta'lifni samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik muhitni yaratish, o'qitishning yangi paradigmalarini ishlab chiqish hamda nazariya va amaliyot integratsiyasini rivojlantirish tavsiya qilingan.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida ilg'or texnologiyalar va ta'lif dasturlarini keng joriy etish dolzarb vazifalar etib belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi bilan o'tkazilgan yig'ilishdagi ma'ruzalarida mamlakatimizda demokratik yangilanish va erkin ijtimoiy tizimga xos bo'lgan fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi bosqichma-bosqich izchil harakatning konseptual yo'nalishlarini alohida ta'kidlab, yurtimizda boshlangan islohotlar jarayonini izchillik bilan davom ettirish va mantiqiy yakuniga etkazish muammolarining asosiy yechimi – boshqaruv tizimini erkinlashtirish ekanligi e'tirof etildi va bunda rahbar xodimlarga quyidagi asosiy talablar qo'yildi:

-har bir muassasa, tashkilot rahbarining o'z faoliyatiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, boshqaruv jarayonidagi javobgarligini oshirish, ularning ongidan “hech kim menga tegmasa bas, tinchgina kunim o'tsa bo'ldi” degan fikrni chiqarib tashlash;

- rahbarning o‘z sohasida pedagogik kompetentlilikni baholash mezonlarini, ya’ni o‘z ishining yetuk mutaxassisini bo‘lishi, faoliyat yuritayotgan sohaning sirlarini har tomonlama izchil bilishi zarurligi.

Boshqaruvning psixologik-pedagogik ta’minoti umumiyligi ta’lim maktablari innovatsion faoliyatining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Bizning fikrimizcha, umumiyligi ta’lim maktablari innovatsion boshqarishning psixologik-pedagogik ta’minotini yaratishning asosiy shartlaridan biri sifatida ta’limni insonparvarlashtirish va axborotlashtirishni e’tirof etish lozim. Buning mohiyati, eng avvalo, maktab jamoasi o‘rtasida insonparvarlik munosabati qaror toptirish bo‘lsa, ikkinchidan esa, o‘quvchilarni o‘zini namoyon qilishda va shaxsning o‘sishi uchun psixologik-pedagogik sharoit yaratish hamda axborot muhitini shakllantirishdan iboratdir. Zamonaviy sharoitda “insonparvarlik” tushunchasiga nisbatan ko‘plab falsafiy yondashuvlar ilgari surilgan. Chunonchi, ayrim manbalarda mazkur tushuncha shaxs sifatida inson qadr-qiyamatini tan oluvchi dunyoqarashning tarixiy tizimi deya e’tirof etiladi. Bizning fikrimizcha, “insonparvarlik” tushunchasini dunyoqarashning rivojlantiruvchi tizimi sifatida qayd etish maqsadga muvofiq bo‘lib, shunga ko‘ra mazkur tushuncha mohiyati insonning oliy qadriyat sifatida tan olinishidan iboratdir.

insonparvarlik subyektning subyektga bo‘lgan ijobiy munosabatini aks ettiruvchi shaxsga xos fazilatlardan bir sifatida ko‘rsatiladi. Mazkur tushuncha mohiyatida quyidagilar o‘z aksini topadi:

- insonni oliy qadriyat sifatida tan olish, uning izzat-nafsi va qadr-qimmatini hurmat qilish;

- subyektlar bilan munosabatda ziyraklik, hozirjavoblik, ezgulik, xushmuomalalik, hamandardlik, kamtarlik va g‘amxo‘rlikni ifodalash;

- har qanday zulm, yolg‘on, ikkiyuzlamachilik, kamsitish, haqorat, befarqlik, lo‘ttibozlik, qo‘pollik, takabburlik va beodoblikka toqat qila olmaslik.

Ta’lim jarayoniga insonparvarlik g‘oyalarini tadbiq etish tabiiy ravishda “ta’limni insonparvarlashtirish” tushunchasini qo‘llashga imkon beradi. Ta’limni insonparvarlashtirishda quyidagi holatlar namoyon bo‘ladi:

- shaxs istaklari va atrofdagilarni tushuna olish qobiliyatini ifoda etuvchi jo‘shqin muloqotga bo‘lgan ehtiyoji;

- maktab jamoasida insonparvarlik g‘oyalariga asoslanuvchi shaxslararo muloqotni tashkil etishda subyektlar xulq-atvori va ongiga o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning psixologik-pedagogik metodlaridan foydalanish;

- o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishda o‘quvchilarning faol ishtiroklarini ta’minalash. Umumiy ta’lim maktablari faoliyati mazmuniga insonparvarlik g‘oyalarini singdirishning o‘ziga xos an’analari mavjud. Ya’ni:

1) ta’lim sohasidagi davlat siyosatining insonparvarlik harakteriga egaligi (O‘zR Konstitusiyasida inson huquq va erkinligining oliy qadriyat sifatida tan olinganligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalash yo‘lida ijtimoiy harakatlarning yo‘lga qo‘yilishi kabilar kiradi. Amaldagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni mazmunida ham ta’lim sohasida

davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida ta'limning insonparvarligi alohida qayd qilingan. Jamiyatda kechayotgan tub o'zgarishlar va uzliksiz ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar ham soha bo'yicha davlat siyosatida yetakchi o'rinni ta'limni insonparvarlashtirish g'oyasi egallashiga sabab bo'ldi;

2) umumiy ta'lim maktablarida tashkil etiluvchi ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish bilan bog'liq bo'lib, unda quyidagi holatlar inobatga olinadi:

- ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash maqsadida o'quvchilarining yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarini o'rganish va inobatga olish;

- pedagogik jarayonning faol subyekti sanaluvchi o'quvchining shaxsiy fazilatlarini boyitish va ularni yanada rivojlantirish;

- o'quvchilarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lish, ularning ichki kechinmalarini to'g'ri anglash;

- o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikka va samimiyy munosabatga asoslangan psixologik sog'lom muhitni yaratish;

- individual ta'limni rivojlantirish;

- ta'lim mazmunini ilg'or pedagogik texnologiyalar va shaxsni har tomonlama rivojlantirish imkonini beruvchi samarali metodlar bilan boyitish;

- innovatsionfaoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash.

E'tirof etilayotgan ushbu yo'nalishlar garchi zamonaviy umumiy ta'lim maktablarini rivojlantirishning umumiy yo'nalishlar ko'rinishida aks etsa-da, biroq ular majmuaviy xarakterga egaligi bilan o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga imkoniyat yaratadi, shuningdek, ularda hissiyo kayfiyat uyg'otadi va ularning tafakkurlarini yanada boyitadi.

Umumiy ta'lim maktablari rahbarining faoliyatida ham insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Zero, rahbar nafaqat boshqaruv, balki shu bilan birga muayyan pedagogik vazifalarni ham ijobjiy hal eta olishi zarur. Bu jarayonda u bevosita pedagogik jamoa va o'quvchilar bilan faol muloqotda bo'ladi. Muloqot mazmunida ta'lim subyektlari haq-huquqlarining hurmat qilinishi, ularning istaklari, qiziqishlari va manfaatlарining inobatga olinishi o'z navbatida boshqaruv samaradorligini ham ta'minlashga yordam beradi.

Bu o'rinda amerikalik sosiolog S.Dipning yondashuviga asoslangan holda rahbar shaxsida ishontirish, majburlash, modellashtirish va rag'batlantirish kabi metodlardan foydalanish, shuningdek, pedagogik va o'quvchilar jamoasi manfaatlari va ehtiyojlarini yuqori boshqaruv organlari oldida himoya qilishi qobiliyatining aks etishi muhim ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Umumiy ta'lim maktablari innovatsion faoliyatini boshqarishda, shuningdek, pedagog xodimlar ham bugungi kun talablariga javob bera olishlari zarur. Pedagoglarda quyidagi sifatlarning mavjud bo'lishi ta'lim va tarbiya jarayonlarida samaradorlikni qo'lga kiritishga imkon berish bilan birga umumiy ta'lim maktablari faoliyatida innovatsiong'oyalarni faol qo'llash uchun sharoitni yuzaga keltiradi: kasbiy mahorat, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, tashkilotchilik hamda ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, zimmadagi mas'uliyat va javobgarlikni his qilish, tezkor o'zgarishlarga moslasha olish (bilimlarini uzliksiz boyitib borish,

faoliyatda sifat o‘zgarishlari va yangiliklarga intilish, o‘zini tuta bilish), muloqot madaniyatiga ega bo‘lish (kirishuvchanlik, o‘quvchilarni tushuna olish, ularning yosh va psixologik xususiyatlaridan xabardor bo‘lish, atrofdagilarni o‘ziga jalb eta olish, tinglash qobiliyatiga ega bo‘lish), o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonish, har qanday vaziyatlarda ham ruhini tushirmaslik, muomalali vaziyatlardan chiqib keta olish, shaxsiy qarashlarini himoya qila olish va o‘zini tuta bilish.

Muassasa rahbari, shuningdek, asosiy shaxs sifatida salobatli, haqiqatparvar, mustaqil, har qanday vaziyatda ham yetakchi bo‘la olishi, o‘z huquqlarini himoya qilishda murosasiz bo‘lish, o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘z kuchiga yuqori baho berish, kuchli xarakter egasi va mard bo‘lishi lozim. Borliqni anglash va boshqaruv jarayonida axborot, ma’lumot muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois muayyan jarayonlarni faollashtirishda ma’lumotlar bilan ta’milanganlik, ya’ni ma’lumotlarni to‘plash, ularni qayta ishlash, uzatish va boshqaruv jarayonida muayyan xulosalarga kelishda axborotlardan maqsadli, unumli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim amaliyotida axborotlar bilan ta’milanganish innovatsiontexnologiyalar majmuasi sifatida aks etadi. Mavjud manbalar tahlili (Z.A.Frolov, M.M.Potashnik, V.S.Lazarev va boshqalar) “axborot texnologiyalari” tushunchasining quyidagicha izohlanganligidan dalolat berdi: kundan-kunga o‘sib borayotgan, to‘planayotgan bilimlar hajmida yuzaga keluvchi ziddiyatlarni hal qilish, ikkinchi tomonidan esa ulardan foydalanish o‘rirlari va imkoniyatlarini ko‘rib chiqish.

Nazariy tahlili va ilmiy tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra ta’lim muassasalari innovatsionfaoliyatini boshqarishda samaradorlikni ta’minlay oluvchi quyidagi holatlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1.Umumiyligi ta’lim maktablarining axborot tarqatuvchi subyektlar (kutubxona, mulk shaklidan qat’iy nazar axborotlarni yig‘uvchi va qayta ishlovchi yuridik shaxslar – tashkilotlar) bilan aloqasi.

Bunda muktab kutubxonalar muhim o‘rin tutadi. Mustaqillik yillarda respublikada kutubxonalar faoliyatini takomillashtirish, ularni yangi axborot manbalari va texnologiyalari bilan ta’minalash, o‘quvchilar va pedagoglarga axborot xizmatini tashkil etish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buning yorqin isboti sifatida O‘zbeksiton Respublikasi Prezidentining “Aholini axborot-kutubxona bilan ta’minalashni tashkil etish haqida”gi PF-381 sonli Farmonini keltirish mumkin.

Mazkur Farmonda ta’lim muassasalaridagi axborot-kutubxona markazlarining vazifalari aniq ko‘rsatib berilgan. Mustaqillik yillarda Respublika Xalq ta’limi vazirligi tomonidan esa “O‘quv muassasasining axborot-kutubxona markazini tashkil qilish haqida”gi namunaviy Nizom e’lon qilindi. Ushbu Nizomda axborot-kutubxona markazining asosiy faoliyat yo‘nalishi sifatida quyidagilar alohida keltirilgan:

- o‘quv-tarbiya jarayoni va o‘z ustida ishlash uchun o‘quvchilar, pedagoglar va boshqa kitobxonlarga kutubxona va axborot-bibliografiya xizmatini ko‘rsatish;

- kitobxonlarni adabiyotlardan mustaqil foydalanish, ya’ni kitob bilan ishslash, ularni izlash, tanlash, ma’lumotlarga tanqidiy baho berishga o’rgatish;
- kutubxona an’analarini saqlab qolish va yangi texnologiyalar bilan ishslashni o’rganish, axborot-kutubxona jarayonini kompyuterlashtirish va zarur texnikadan foydalanishning sifatini yanada oshirish (qarorlar, nizomlar).

Umumiylar ta’lim maktablari qoshida faoliyat yurituvchi axborot-kutubxona markazlarining faoliyati keng ko’lamli bo‘lib, fondni badiiy adabiyotlar bilan ta’minlashdan tortib, ma’lumotlar bazasini tashkil etish va xizmat ko‘rsatish, turli mavzularda bahs-munozaralar va musobaqalarni uyushtirish, yangi adabiyotlar taqdimotini o’tkazish, ko‘rgazmalar, shuningdek, darsdan tashqari o‘qishni tashkil etish, “Faol kitobxon o‘quvchilar sinfi” mavzusida tanlovlardan o’tkazish shular jumlasidandir. Maktab-axborot kutubxona markazi umumiylar ta’lim maktablarining tarkibiy qismi sifatida innovatsionfaoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umumiylar ta’lim maktablari axborot-kutubxonasi viloyat, shahar va tumanlardagi axborot-resurs markazlari bilan o‘zaro hamkorlikka erishishi, ular bilan mustahkam aloqa bog‘lanishi muhim ahamiyatga egadir. Mazkur hamkorlik turli yo‘nalishlar (ijtimoiy-g‘oyaviy, ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, bolalar va o‘smirlar ijodiyoti, ma’naviyat)da insoniyat tomonidan to‘plangan ma’naviy boyliklarni to‘plangan axborotlar majmui negizida amalga oshiriladi. Umumiylar ta’lim maktablari axborot-kutubxonasi faoliyati bilan tanishish ularning mintaqalarda faoliyat yurituvchi axborot-resurs markazlari bilan aloqasi turli, ya’ni taqdimot marosimlari, ekskursiyalar, kitobxonlik va ilmiy konferensiyalar, kitob bayramlari, san’at asarlari ko‘rgazmalari, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, xalq og‘zaki ijodi bayramlari, oilaviy bellashuvlar, o‘yin-sayohatlar, fondlar bo‘yicha sayohatlar, yangi adabiyotlar ko‘rgazmalarini va boshqa shakllarda tashkil etiladi.

Hozirda axborot-kutubxona markazlari ta’lim muassasalari axborot infratuzilmasining ajralmas qismiga aylangan hamda ko‘p tirajli hujjatlarning tashkiliy jamg‘armasiga ega bo‘lib, ular jismoniy va yuridik shaxslarga vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi. Fondlar, kataloglar, kartotekalar, ma’lumotlar bazasi va axborot-kutubxonalarining axborot resurslari davlat axborot resurslarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Umumiylar ta’lim maktablari qoshida faoliyat yurituvchi axborot-resurs markazlari muassasalardan tashqari axborot muassasalari bilan ham o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yishlari muhim ahamiyatga egadir. Bunday muassasalari qatorida arxivlar, muzeylar, kitoblar savdosini tashkil etuvchi shahobchalar, dam olishni tashkil qiluvchi markazlar va h.k. alohida o‘rin tutadi. Ular o‘rtasidagi hamkorlik ekskursiyalar, tadqimot marosimlari, bayramlar, ko‘rgazmalar, viktorinalar, taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Demak, umumiylar ta’lim maktablarini innovatsionboshqarishda ularning axborot muassasalari bilan hamkorligi mazkur jarayonning rivojlanishiga xizmat qiladi. Umumiylar ta’lim maktablarini innovatsionboshqarishda telekommunikasiya jarayoni ham alohida o‘rin tutadi. Telekommunikasiyalar – bu bir-biridan uzoqda

bo‘lgan subyektlararo munosabat, ya’ni bevosita aloqalarni o‘rnatuvchi subyektlar sanaladi.

Bugungi kunda umumiy ta’lim maktablarlari amaliyotda quyidagi telekommunikasiya shakllaridan samarali foydalanilmoqda:

1.Maktabdagagi kompyuterlarini lokal tarmoqqa ulash. Buning uchun maktablar tarmoq jihozlari va dasturlar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak. Lokal tarmoqni yaratish kompyuter xizmatidan foydalanuvchilarining jamoa asosida ma’lumotlar, axborotlarni qayta ishlashlariga imkon beradi. Ushbu holat, shuningdek, axborotlarning o‘zaro almashinishi hamda dasturlar, printerlar, modemlar va boshqa qurilmalardan birlikda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2. Internet vositasida majmuaviy transmilliy kompyuter elektron axborotlar tarmog‘idan foydalanish. Internetda ko‘plab lokal va global tarmoqlardan mavjud bo‘lib, ular turli muassasalar, tashkilotlarga tegishli sanaladi. Internet turli hajmdagi tarmoqlar birligi sifatida ularning bir-birlari bilan doimiy aloqada bo‘lishlarini ta’minlaydi. Internetning afzalligi unda jahondagi eng yirik, ishonchli va barcha birdek foydalana oladigan global aloqaning mavjudligi bilan izohlanadi.

Bugungi kunda telekommunikasiyalar ta’lim muassasalarini faoliyatida muhim o‘rin egallaydi va ularni innovatsionjarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq, mavjud sharoitda barcha umumiy ta’lim maktablarlari ham telekommunikasiyalar xizmatidan birdek samarali foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Buning assosiy sabablari moliyaviy mablag‘larning yetishmasligi, pedagogik xodimlar kasbiy mahoratlarining pastligi, texnologiyalar tizimida ta’lim dasturlarining mavjud emasligi, maxsus pedagogik, metodik adabiyotlarning kamligi bilan izohlanadi.

3.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini innovatsionboshqarishga imkon beruvchi axborot texnologiyalarining yana bir ko‘rinishi – bu ta’lim muassasa tizimida faol axborot almashinuvchining yo‘lga qo‘yilganligi, muassasalararo aloqalarning o‘rnatilganligi hamda bu yo‘lda tashkil etilayotgan boshqaruv organlarining tezkor faoliyati hisoblanadi. Obyektiv va subyektiv omillar umumiy ta’lim maktablari faoliyatiga turlicha va tasodifiy ta’sir o‘tkazadi. Har bir umumiy ta’lim maktablari o‘zining yaxlitligini saqlab qolgan holda zarur vaziyatlarda tashqi ta’sirlarga javob bera olishi lozim. Ya’ni umumiy ta’lim maktablari turli harakat dasturlariga ega bo‘lishi, shuningdek, boshqaruv tizimiga ta’sir etuvchi xatti-harkatlarni rejalshtira olishi lozim. Zamonaviy sharoitda axborot texnologiyalarining yuqori darajada rivojlanganligiga qaramay ta’lim muassasalarini faoliyatini o‘rganish quyidagi kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi:

- ba’zan dastlabki axborot ta’lim muassasalarining boshqaruv organlariga kechikib yoki o‘zgargan holda yetkaziladi;
- turli sabablarga ko‘ra boshqaruv organlari axborotlarni qayta ishlay olmaydilar va ular bo‘yicha zarur qarorlarni qabul qilmaydilar;
- boshqaruv organlarining ayrim a’zolarida omilkorlik, ziyraklik, tashabbuskorlik kabi xislatlarning yetishmasligi sababli ular yetkazib berilgan

ma'lumot, axborotlar mohiyatini to'g'ri anglay olmaydilar va ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega emaslar.

Nazariy tahlil (I.T.BolabanoV, S.F.Frolov, Z.A.Kapitonov) natijalarining ko'rsatishicha, ta'lim muassasalari bilan axborot markazlari o'rtaSida tezkor axborot aloqalarini o'rnatishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Kuzatish – ijtimoiy o'zgarishlar, jamiyatda ro'y berayotgan muhim voqyea-hodisalarini bevosita kuzatib borish imkoniyatini yaratadi.

2. Ta'lim muassasalari hujjatlarini tahlil qilish – hujjatlar bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish, matn, magnit tasmalari, disketa yoki disklarda ma'lumotlar, axborotlarning to'la saqlanishi va ulardan foydalanuvchilarga yetkazib berishda samarali sanaladi. Hujjatlar tahlilining samarali bo'lishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

- hujjatlardan to'g'ri foydalanish metodlaridan xabardor bo'lish;
- hujjatlar mohiyatini yetarli darajada anglash;
- ularda ko'zda tutilgan talablarni to'g'ri tushunish va ularni e'tibordan chetda qoldirmaslik.

Rasmiy hujjatlar (me'yoriy hujjatlar, ko'rsatmalar, tavsiyanomalar, hisobotlar va h.k.), odatda norasmiy hujjatlar (xatlar, kundalik yozishmalar va b.sh.)ga qaraganda ishonchli hisoblanadi. Hujjatlarni tahlil qilishning: an'anaviy (axborotlarning mazmunini tushunish, tahlil qilish) va rasmiy (axborotlarning sifat va son ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni so'rovnomalarini tashkil etish orqali muayyan vaqt ichida tahlil qilish) usullari mavjud.

3. So'rovnama – og'zaki yoki yozma shakllar tashkil etilib, axborotlarni to'plashga yordam beradi. So'rovnomalarning anketa, intervyu, suhbat, savol-javob, ekspert baholash kabi shakllari mavjud.

4. Test – psixologik tashxis metodlaridan biri. Mazkur metodni qo'llash orqali subyektlar e'tiboriga muayyan tartibdagi va bir necha javob variantlari mavjud bo'lgan savollar majmui taqdim etilib, individual farqlarni aniqlash, bilish uchun o'tkaziladi, subyektda zaruriy bilim, malaka, shaxsiy sifatlar va boshqa jihatlarning rivojlanishi, zaruriy darajani bilib olishga yordam beradi.

5. Tashkil etilgan tadbirning samaradorligini tahlil qilish – tadbirning tashkil etilishi, o'tkazilishi, erishilgan yutuq va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash hamda qo'lga kiritilgan natijalarini baholashga xizmat qiladi. Bunda natijalar ilgari surilgan maqsad bilan qiyoslanadi. Mazkur metod umumiylarini ta'lim muktabalarini innovatsionboshqarishda samarali bo'lsa-da, muassasa rahbarlari ushbu metodni faol qo'llayvermaydilar.

6. Kundalik nazorat daftарini yuritish – umumiylarini ta'lim muktabalarining umumiylarini, shu jumladan, innovatsionfaoliyatini darajasini o'rganish, bu boradagi muammolarni aniqlash va hal etilishi zarur bo'lgan vazifalarni belgilab olish uchun imkon yaratadi.

Paragrafda yoritilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, umumiylarini ta'lim muassasalari innovatsion faoliyatini boshqarishda tezkor axborot almashinuviga erishish, turli axborot markazlari bilan o'zaro hamkorlikka erishish

va ular o‘rtasida mustahkam aloqalarni o‘rnatishda bu jarayonda samarali qo‘llash mumkin bo‘lgan metodlar majmuidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, umumiy ta’lim maktablari tomonidan axborotlarning tezkor qabul qilinishi, ularning qayta ishlanishi, ilmiy-metodik nuqtai nazardan tahlil qilinishi, o‘zaro qiyoslanishi, umumlashtirilishi, guruhlarga ajratilishi innovatsionfaoliyat mazmunini boyitish, bu yo‘lda amalga oshirilishi rejalashtiriluvchi amaliy harakatlarning yo‘nalishlarini belgilash, ta’lim xizmatlari uchun asos bo‘luvchi ma’lumotlar, bilimlarning mantiqiy boyitilishini ta’minlaydi. Qisqa qilib aytganda, axborotlar to‘plami innovatsionfaoliyatni tashkil etilishi uchun zarur mexanizm bo‘la oladi. Ilmiy metodik ishlar umumiy ta’lim maktablarini innovatsionboshqarishda muhim o‘rin tutuvchi axborot texnologiyalarining yana bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lib, ular ilm-fan yutuqlari, ilg‘or tajribalar, ilmiy izlanishlar hamda o‘qituvchilar pedagogik faoliyatining tahlili natijalariga asoslanadi. Ilmiy metodik ishlarning umumiy mohiyati, asosiy nazariy g‘oyalari hamda muhim amaliy natijalari pedagoglarning kasbiy mahoratlarini yanada oshirish, pedagogik jamoa imkoniyatlarini boyitish va rivojlanishga qaratiladi. Umumiy ta’lim maktablarlarining faoliyatida yangi yo‘nalish bo‘lgan ilmiy-metodik ishlarni olib borish ta’lim amaliyoti uchun dolzarb bo‘lgan pedagogik muammolarni aniqlash, ularni hal etish maqsadida majmuaviy vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish asosida ilg‘or pedagogik tajribalar ommalashtiriladi, pedagogik jamoa ilg‘or pedagogik va psixologik texnologiyalar, turli fanlar yo‘nalishlarida qo‘lga kiritilgan yutuqlar hamda ta’lim samaradorligini ta’minalashga xizmat qiluvchi tamoyillar bilan yaqindan tanishtiriladi. Bu o‘rinda umumiy ta’lim maktablarini innovatsionboshqarishda ilmiy-metodik ishlar ijobiyligi o‘zgarishlarning sodir bo‘lishini ta’minlaydi. Umumiy o‘rtalikta ta’lim maktablarini innovatsion boshqarishda samarali bo‘lgan turli ko‘rinishdagi axborot texnologiyalarini qo‘llash murakkab jarayon. Ta’lim muassasalarining faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishda ularning ijodiy xarakterga egaligi, mavjud moddiy-texnik asos holatiga muvofiq kelishi, turli darajadagi kasbiy tajribaga ega barcha pedagoglar tomonidan birdek qo‘llanish imkoniyati mavjudligi inobatga olinishi lozim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasni tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-soni Farmoni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-soni, 29.04.2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-soni Farmoni 2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentabrdagi PQ-3261-soni «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi PF-5198-son «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni.
5. Yo‘ldoshev N.Q., Umarjonov A.M. Iqtisodiyot va menejment. - T.: TDIU, 2005
6. Sh.N.Zaynutdinov, N.R.Qodirxodjaeva. "Menejment" fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmuasi. "Iqtisodiy ta’limdagi o‘qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2006, 156 b
7. G‘oziyev E. Psixologiya. Darslik. 2020 yil.
8. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari // Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – Toshkent, 2015.
- 10.O.M.Jabborova, F.U.Jumanova, Sh.R.Mahkamova.. Formation of Artistic Perception of Future Teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 4087-4095. (2020)
9. Odiljonova, K. (2023). O‘QUVCHILARDA SOG‘lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. Fan va innovatsiyalar , 2 (B4), 267-272.
10. Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). ЎҚУВЧИЛАРДА ВАЛЕОЛОГИК БИЛИМНИ ОШИРИБ БОРИШ АСОСЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(5).
11. Abduazizkhan, A. Y. (2023). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ETHICAL ATTITUDES IN STUDENTS BASED ON AXIOLOGICAL APPROACHES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 216-220.
12. Камолова, Ш. У. (2023). ЎҚИТУВЧИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТНИ АМАЛГА ОШИРИШ АСОСИЙ ОМИЛ СИФАТИДА: Камолова Ширин Усаровна, ЖДПУ катта ўқитувчиси Амонхонова Янглишон, Педагогика ва психология йўналиши 2-босқич магистри. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (2), 123-126.
- 13.Odiljonova, X. (2024). O‘QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O‘STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(1), 3-11. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9411>